

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA JARGO VA ARGOLARNING IFODALANISHI**Mingboyeva Ozoda Mansurovna***Termiz davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi jargon va argolarning ifoda, ma’no va mazmun jihatlari, tilda so‘zlarning bir yoki bir necha ma’noga ega bo‘lishi, so‘z ma’nolarining o‘zgarishi bilan bog‘liq hodisalar o‘zbek adabiy fantastikasining asoschilaridan biri, ma’rifat arbobi taniqli o‘zbek yozuvchisi Tohir Malikning “Shaytanat” asari asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *argo, jargon, sleng, tizimli sleng, paxan, ment, vishka, laqab*

Argo (frans. argot-jargon) - ma’lum toifa kishilargagina tushunarli so‘zlar mavjudligi bilan umumxalq tilidan farq qiluvchi, biror ijtimoiy toifa, guruh (masalan, dallollar, sportchilar, talabalar, og‘rilar va hokazo)ga xos yasama til. Jargon so‘zi ham fransuz tilidan olingan bolib, jargon - ma’lum bir ijtimoiy guruh a’zolarining o‘zaro muloqot yuritishida xizmat qiladigan nutq turi deb qaraladi.

Aynan yoshlar tili borasida gap ketganda hozirgi kunda olimlar uni uch asosiy davrga bo‘lib o‘rganishadi. 20-yillar. Bu davrda urushlar tufayli qarovsiz bolalar ko‘payib ketishi natijasida turli yoshdagi bolalar talabalar va o‘smirlarning nutqi turli argolar va jargonlar bilan boyib ketdi. 50-yillar. 2-davr g‘ayrioddiy modaga berilgan oliftalar davri bo‘ldi. 70-80-yillar. Bu slenglarning yana bir portlash davri bo‘ldi. Bu portlashga shu davrlarda boshlangan to‘xtash, harakatsizlik sabab bo‘ldi. Bu narsa yoshlar noqonuniy harakatlarining paydo bo‘lishi va o‘zlarini rasmiy g‘oyadan uzoqroq tutish uchun alohida “tizimli” sleng yaratishdi. Hozirgi kunda esa yoshlar tiliga kompyuter va texnika asri katta ta’sir o‘tkazmoqda.

Xo‘sh, kattalar va yoshlar o‘rtasida sevib o‘qiladigan asarlarda ham slenglar mavjudmi? Bu borada Tohir Malikning “Shaytanat” nomli qissasiga nazar tashlasak, juda ko‘p jargo va argonlarni ko‘ramiz.

-Hali nima devding, quruq! –deb yoqasiga yopishdi. Asarning ilk sahifalaridagi bu gapga qarasak, “quruq” so‘zi asli ma’nosidek namligi yo‘qolgan, suvi yo‘q degan ma’noni anglatmayapti, aksincha, gapirgan gapining dalili yo‘q, maqtanchoq sifatida qo‘llanilgan. "To‘g‘ri, u yoqlarda Asadbek, desangiz birov bilmas edi. Lekin “O‘qilon” ko‘pchilikka taniqli edi." Asar bosh qahramoni Asadbekka ham bunday laqab berilishi bejiz emas, uning juda tez harakat qilishi, o‘ljasini sekundlar ichida o‘ldirishini nazarda tutib, ma’qul ko‘rgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. "Mayda baliq." Bu soz birikmasi faqat mayda baliqlarni anglatibgina qolmay ma’lum bir ijtimoiy guruhning kichik odamlarini ham nazarda tutadi. "Yirik nahanglar" esa o‘sha guruh ichidagi boshliqlarini, yuqori lavozim egalarini tasvirlashga xizmat qilladi. Har bir jamoaning ichki tartibi, rasm-rusumi bo‘lganidek, jinoyat olamining ham o‘ziga yarasha qonun-

qoidasi bor. Ya'niki, bu olamga qadam qo'ygan har bir tirik jonga laqab beriladi* Shunday odamlardan biri Haydar Asrorov, laqabi Kesak polvon. Biror ismni eshitganimizda, kimnidir tasavvur etamiz, ismdan murod o'sha kishi ekanligini anglashimiz. Insonlar muomala jarayonida bi-birini chaqirishlari uchun ismlardan foydalanadi. Asarda Jalol shilimshiq, G'ilay Shomil kabi nomlarga ham ko'zimiz tushadi. Bundan ko'rinib turibdiki, laqablar ismlar bilan ham qo'llanilishi mumkin ekan. Laqablar shaxsning ko'rinishi, qiligi, mashg'ulotiga qarab beriladigan ikkinchi nomdir. Paxan, mentlar, kelgindi, laycha, arining uyasi bu so'zlar asar davomida juda ham ko'p uchraydi. Ko'rinib turibdiki, ma'lum bir to'da (ijtimoiy guruh) ga xos bu so'zlarni oddiy aholi tushunmasligi mumkin. Masalan, paxan so'ziga e'tibor qaratsak, unga bir qancha ma'nolar berilgan (ota, jinoiy guruh rahbari, tajribali obro'li o'g'ri, jinoyat qidiruv bo'limi boshlig'i va boshqalar) ularning ko'pchiligi aniq xato.* Dastlab bu tergov izolyatoridagi voyaga yetmagan mahkumlar uchun o'qituvchini anglatardi. Lekin yillar o'tgan sari bu so'z jinoyat olamdan ajralmaydigan bir so'zga aylanib, ma'no jihatdan ancha o'zgarib ketdi. Vishka-guruh, to'da ma'nosida qo'llanilgan. Lekin rus tilidagi bu so'z o'zbekchada minora degan ma'noni ifodalaydi. Hovuz polvon-Egamberdi polvonga berilgan laqab bo'lib, u bir gap orqali orttirilgan. "Bir polvon kelib" hovuzni o'ziyla tozalab qo'yibdi-ya". Bundan ko'rinadiki, bir gap yoki so'zning aytilishi ham laqabning qo'yilishi sabab bo'lishi mumkin. Suvilon-prokuror yordamchisi "O'zi chaqa olmaydi, ammo odamni seskantiradi, bu-suvilon", deb atasharkan uni. Insonga bunday laqab qo'yilishiga sabab u o'zi biron bir ta'sir o'tkaza olmaydi, ammo gapni u yoqdan bu yoqqa tashiganidir. Demak, yomon odatlar ham laqablar uchun sabab bo'la oladi.

Xumkalla-asarda yozuvchi bu qahramonni qiligi yoki gaplari uchun emas, balki tashqi ko'rinishi jihatidan shunday nomlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Boliqulova Hilola "Italyan tili jargonlari"
2. A. Sidirov "Zamonaviy jinoiy va lager jargonlarining lug'ati"
3. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jild, 800 dan ortiq so'z A. Madmaliyev tahriri ostida. - Toshkent. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
4. Nurmonov A. O'zbek tilining tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent: O'zbekiston, 2002